

## PEDAGOGIK TA'LIM KLASTERI MUHITIDA ARALASH TA'LIMNI QO'LLASH TEXNOLOGIYASI

**Yusupova Nargiza Nigmatovna**

Toshkent davlat O'zbek tili va adabiyoti

Universiteti "xorijiy tillar"

kafedrasи ingliz tili o'qituvchisi

[Yusupova\\_n@navoiy-uni.uz](mailto:Yusupova_n@navoiy-uni.uz)

[nargizanigmatovna@gmail.com](mailto:nargizanigmatovna@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqola zamonaviy o'qitish metodlarini va texnologiyalarini aralash ta'linda qo'llash va tadbiq qilishga qaratilgan. Aralash ta'lim afzallik va kamchilik tomonlari alohida qayt etilgan. Chet tilini o'qitishda samarali metod - o'qituvchi talabalarga bir necha yechimlarni o'z ichiga olgan vazifa bergen holda, munozarali va muammoli o'qitish metodlari hisoblanadi

**Kalit so'zlar:** o'qitish metodlari, aloqa, aralash talim, zamonaviy innovatsion texnologiyalar.

**Аннотация.** Данная статья посвящена использованию и применению современных методов и технологий обучения в смешанном образовании. Отдельно приведены преимущества и недостатки смешанного образования. Эффективным методом обучения иностранному языку являются спорные и проблемные методы обучения, когда преподаватель дает учащимся задачу, содержащую несколько решений.

**Ключевые слова:** методы обучения, коммуникация, смешанное обучение, современные инновационные технологии.

**Annotation.** This article is devoted to the use and application of modern teaching methods and technologies in blended education. The advantages and disadvantages of mixed education are given separately. An effective method of teaching a foreign language is controversial and problem-based teaching methods, when the teacher gives students a task containing several solutions.

**Key words:** teaching methods, communication, blended learning, modern innovative technologies.

Hozirgi kunda doimiy o‘zgaruvchan sharoitda jamiyat va ta’lim tizimining jadal rivojlanish sur’atlari mustaqil qaror qabul qilishga tayyor, malakali shaxsni shakllantirishga yo‘naltirilgan yangi metodlarni o‘rgatishni talab etmoqda. “Uchinchi Renessans” davrini qurayotgan avlodning yangi standartlarini tatbiq etishda asosiy maqsadlar o‘quv jarayonida talabalar tomonidan olingan kompetensiyalardir. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvda talaba o‘zini yanada mustaqil “roli”ni o‘ynaydi. Talaba nafaqat o‘qituvchidan olingan BMKlarni ko‘paytirishi, balki original va nostandard tarzda fikrlashni o‘rganishi va haqiqiy hayotiy vaziyatlarga tayyor bo‘lishi kerak. Mamlakatimizda yangidan qabul qilingan DTS (davlat ta’lim standarti)da talabani ham, o‘qituvchini ham «hayot davomidagi ta’lim» modelini shakllantirishga imkon beradi. Bu konsepsiya butun hayot davomida uzlusiz, doimiy va izchil o‘qishga ehtiyoj zarurligini nazarda tutadi. Har bir talaba keyingi hayotida va rivojlanishlarida zarur bo‘lgan ma’lum bir kopetensiyalarga ega bo‘lishi kerak<sup>1</sup>. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2021-yil 17- dekabrdagi 406-son buyrug‘ining 2-ilovasiga ko‘ra malaka talablari ishlab chiqilgan bo‘lib, unda aynan kompetensiyaga asoslangan yondashuv yordamida o‘quvchilar tomonidan sinflar bo‘yicha o‘zlashtirilishi zarur bo‘lgan BMKlar aniq belgilab berildi. Ushbu hujjatda tayanch tushunchalar sifatida kiritilgan kompetensiyaning bir necha turlari o‘quv reja, o‘quv dasturi mazmunida o‘z aksini topishi talab etiladi.

Aralash ta’limning afzallik va kamchilik tomonlari albatta mavjud. Aralash ta’lim afzallik tomonlari juda ham ko‘p va foydali. Ularga: moslashuvchanlikning oshishi, hamkorlikning rag‘batlantirilishi, vaqtadan unumli foydalanish, o‘quvchilarga qulay ritm, tezlikda o‘rganish imkonи va albatta talabalarni mustaqil ishlashga o‘rgatish. Lekin aralash ta’limning kamchilik tomonlari ham mavjud bo‘lib, ular esa: internetga bog‘liqlik, texnika (kompyuter, planshetlarga katta talab, qo‘srimcha AT bo‘yicha BMK talabi, qo‘srimcha mutaxassislarga bo‘lgan talab, o‘qituvchi va talaba o‘rtasidagi "jonli" aloqaning yuqolishi, talabalar tartib-intizomini nazorat qilish imkonining pasayishidir. (2.3-rasm).

<sup>1</sup> Qarang. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtalik maxsus ta’lim vazirining buyrug‘i «Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar» O‘zbekiston Respublikasining Davlat standartini tasdiqlash to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2021 yil 27 oktyaborda hisobga olindi, hisob raqami 43. <https://lex.uz/docs/5705038>



### 2.3-rasm. Aralash ta'limning afzallik va kamchilik tomonlari

An'anaviy ta'limda talabani o'qitishadi, aralash ta'limda esa – o'qishga o'rgatishadi, mustaqil faoliyatini tashkil qilishadi. Blended learningda – talaba (student-centered) ya'ni markazda bo'ladi, an'anaviy ta'limda esa markazda – o'qituvchi (teacher - centered) bo'ladi. Yana afzallik tomonlaridan biri bu; qulay o'qish tempi. Talaba o'z vaqtini o'zi belgilaydi va nazorat qila oladi. O'quv resurslaridan kuniga 24 soat foydalanishi mumkin bo'ladi. An'anaviy ta'limda bunday imkoniyatlar mavjud emas.

Kamchilik tomonlari ham albatta mavjud, bu internetga bog'liqlik, chekka qishloqlarda hali internet tarmoqlari etib bormagan joylar ham mavjud, shunday ekan talabalarda muammo bo'lishi mumkin. Ayrim talabalarda texnika muammolari ham bo'lishi mumkin, ayniqsa, Imkon bo'magan talabalarda. Lekin hozirgi kunda barcha insitut va universitetlarda axborot texnologiya markazlari mavjud. O'qishni istagan talaba imkon topa oladi. Axborot texnologiya markazlarida, kutibxonalarda va internet kafelarda ishlashi va o'qishi mumkin.

Muammoni muhokama qilish paytida talabalar mustaqil ravishda uning yechimini topadilar, vazifani hal qilishning ko'plab yechimlari qabul qilinadi. O'qituvchining roli munozarani mu'tadillashtirish, bu jarayonni to'g'ri yo'naltirishdan iborat. Shuningdek, munozarada qatnashayotgan talabalarning psixologik o'zini yaxshi his etishi ham muhim ahamiyatga ega. Chunki haqiqiy muloqot har bir kishi muhokama qilinayotgan masalalar bo'yicha o'z nuqtai nazarini bildirishdan, bahslashishdan, suhbatdoshga e'tiroz bildirishdan qo'rqlaydigan joyda sodir bo'ladi. Mashg'ulotda psixologik noqulaylikning mavjudligi o'quv va kognitiv faoliyat uchun

stimullarning buzilishiga olib keladi. O'qituvchi va talaba o'rtasidagi munosabatlarning asosiy ahamiyati ularning o'zaro ta'siridir, yechimlarni birgalikda izlash, muvaffaqiyatlar va muammoli munosabatlarni birgalikda tahlil qilishni o'z ichiga oladi. Bunday holda, talaba tashabbuskor "sherik"ka aylanadi. Talabalar katta qiziqish bilan o'quv faoliyatini oshirish va intensivlashtirishga asoslangan turli xil ishbilarmonlik o'yinlarida qatnashadilar. Sohaviy manbalarni o'rganishdan ayon bo'ladiki, mashg'ulotlarning dars shaklida o'yin texnikasi va vaziyatlarini amalga oshirish quyidagi asosiy yo'naliшlarda amalga oshiriladi:

- o'yin vazifasi shaklida talabalar uchun didaktik maqsad qo'yiladi;
- o'quv faoliyati o'yin qoidalariga bo'ysunadi;
- o'quv materiali uning vositasi sifatida ishlataladi, musobaqa elementi ichiga kiritiladi, bu esa, o'z o'rниda, didaktik vazifani o'yinga aylantiradi; didaktik vazifaning muvaffaqiyatli bajarilishi o'yin natijasi bilan bog'liq bo'ladi.

Ishbilarmonlik o'yinini tayyorlash ssenariyni ishlab chiqishdan boshlanadi. Uning tarkibiga quyidagilar kiradi: darsning o'quv maqsadini to'g'ri qo'yish, o'rganilayotgan muammoning tavsifi, vazifani asoslash, ishbilarmonlik o'yini rejasi, o'yin jarayonining umumiy tavsifi, vaziyatning mazmuni va ishtirokchilarning xususiyatlari. Keyinchalik o'yinga kirish, ishtirokchilar va mutaxassislarning joylashuvi amalga oshiriladi. Ishning algoritmi aniqlanadi, darsning asosiy maqsadi shakllantiriladi, muammoni shakllantirish va vaziyatni tanlash asoslanadi. Qo'shimcha materiallar, masalan, yo'iqnomalar, qoidalar taqdim etiladi.

Ingliz tilini o'qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish juda muhim sanaladi. Shuning uchun zamonaviy Davlat ta'lim standartlari talabalarning elektron axborot-ta'lim tizimiga majburiy kirish talabini kiritdi. Chet tilini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish imkoniyatlari juda ko'pligini hozirgi kun tadqiqotlari tasdiqlaydi<sup>1</sup>. Misol sifatida ulardan ba'zilariga to'xtalsak, ingliz tilidagi saytlarga kirish o'rganilayotgan tilning tarixi, madaniyati, siyosiy tuzilishi va asosiy diqqatga sazovor joylari to'g'risida ma'lumot olishning asosiy vositalaridan biri ekanligini aytishimiz mumkin. Jumladan, pandemiya tufayli masofadan xizmat ko'rsatish, onlayn servislar rivojlanib, san'at va madaniyatga qiziquvchilar orasida onlayn muzeylar ommalashdi. Londonlik dasturchi Mak Grenfell yaratgan yangi – Virtual Museums sayti<sup>2</sup> virtual sayohat qilish mumkin bo'lgan onlayn muzeylarni o'zida jamlashni maqsad qilgan. Endi uydan chiqmagan holda smartfon, noutbuk, planshet yoki kompyuter orqali turli

<sup>1</sup> Learningapps [Электронный ресурс]. Режим доступа: <https://www.itpedagog.ru/learningapps>

<sup>2</sup> <https://virtualmuseums.io/>

muzeylarni 3D formatida tomosha qilish imkoniga egamiz. Bu kabi imkoniyat mahalliy muzeylarimizda ham mavjudligi diqqatga sazovor<sup>1</sup>.

Qo'llaniladigan zamonaviy innovatsion texnologiyalarning muvaffaqiyat ko'rsatkichlari ularning samaradorligi; tejamkorligi (muayyan vaqt birligida katta hajmdagi ma'lumotni o'zlashtirish); ergonomikligi (hamkorlikda o'rganish, zo'riqib ishlamasdan qulay emotsiyal mikroiqlimning mavjudligi); fanni o'zlashtirishda ijobiy motivatsiyani shakllantirish, bu esa o'z samarasini berib tinglovchilarning shaxsiy fazilatlarini "kashf etish", o'qitishda tezkor rivojlanish zonasiga ta'sir o'tkazish imkoniyatini yaratib beradi.

Internetda ishslash talabalar orasida ko'plab ijobiy his-tuyg'ularni yuzaga keltiradi, bu esa dars samaradorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuni ta'kidlash kerakki, virtual sayohat paytida o'qituvchi dars davomida talabalar tomonidan bajariladigan zarur minimal vazifalarni belgilaydi. Vazifalarni tez uddalagan talabalar ko'rgazma zallari atrofida «sayr qilish», qiziqadigan har qanday eksponat to'g'risidagi ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyatiga ega. Bunda bo'lajak dizaynerlar va sayyoqlik xodimlari uchun kelajakdagi kasbiy faoliyatida foydali bo'lishi mumkin bo'lgan jihatlarga e'tibor qaratishi maqsadga muvfiqdir. Bu yerda mashg'ulotlarga individual yondashuv ham amalga oshiriladi. Dars davomida turli AKTlardan foydalaniladi. Chet tillarni o'rganishning asosiy maqsadi sifatida kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan turli xil munozaralar ham samarali bo'ladi. Masalan, bu taxminiy ssenariy asosida ishbilarmonlik yoki rolli o'yinlar bo'lishi mumkin. O'zbekiston Davlat muzeylariga bir guruh sayyoqlar sayohat uchun keladi. Buning uchun chiptalarni o'yin tarzida sotib olish, har bir muzeyning ish jadvallari haqida bilib olish, har bir muzeyning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash kerak bo'ladi. Muzey xodimlari vazifasini bajaruvchi talabalar muzeylar haqida ishonchli ma'lumot berishlari, zallarga sayohatlar uyuştirishlari, turli eksponatlarni kasbiy lug'at boyliklaridan foydalanib tasvirlashlari lozim. Ushbu darsda qo'llaniladigan kasbiy yo'naltirilgan o'qitish texnologiyalari talabalarning kasbiy va kommunikativ kompetensiyasini o'zlashtirishga, o'rganilayotgan materialni muhokama qilishda faol va ijodiy ishtiroy etishiga qaratilgan<sup>2</sup>.

Dars davomida ijtimoiy-madaniy kompetensiya (o'rganilayotgan tilning mamlakat madaniyati bilan tanishish), o'quv-kognitiv kompetensiya (umumiyl va

<sup>1</sup> Yusupova Nargiza Nigmatovna

[https://journal.bilik.uz/isepsmj/article/view/1013](https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1013) ZAMONAVIY O 'QITISH METODLARIDA ROL O 'YINLARINI KENG QO 'LLANILISHI

<sup>2</sup> Strategies for assessing the effectiveness of an online education program R. S. Turdieva and G.R. Razzakova E3S Web of Conf., 413 (2023) 03003 DOI: <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202341303003>

maxsus o‘quv ko‘nikmalarini rivojlantirish, universal faoliyat usullari) rivojlanadi.<sup>1</sup> Kasbiy kompetensiyalar takomillashtiriladi (chet tilida professional muloqotni amalga oshirish; madaniy-ma’rifiy vazifalarni hal qilishda zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ommaviy axborot vositalaridan foydalanish). Talabalar chet tillari va xorijiy madaniyatlarni mustaqil o‘rganishning mavjud usullarini yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda o‘zlashtiradilar. Chet tilida odatiy, biznes va kasbiy muloqotni amalga oshirish uchun mustaqil ravishda bilim olish qobiliyati rivojlanadi, shuningdek, ta’lim mustaqilligi, internet orqali o‘z-o‘zini tarbiyalash qobiliyati oshadi. Bunday darslar talabalarning motivatsiyasini yanada oshiradi, ularning bilim va tadqiqot qobiliyatlarini faol rivojlantiradi. Shunday qilib, zamonaviy innovatsion texnologiyalardan foydalanish zamonaviy DTSni amalga oshirish uchun juda samaralidir.<sup>2</sup>

Audio va vizual materiallarridan foydalanish: o‘qituvchilar talabalar tasavvur olamini kengaytirishni maqsad qilishi zarurligi sababli ular g‘oyani yaxshiroq tushunishni ta’minalash uchun o‘z mashg‘ulotlariga audiovizual metodlar va materiallarni kiritishlari maqsadga muvofiq bo‘ladi. Audiovizual materiallarga asoslanib talabalarning tinglash, o‘qish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantirishga imkon tug‘iladi. Shuningdek, ingliz tilida so‘zlashuvchilarni taklif qilish orqali so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz qilishni “jonli” o‘rganish, bundan tashqari, taqdimotlar, ma’lumotlar namoyishlari, hatto diagramma yoki plakat taqdimotlaridan foydalanish mumkin. O‘qituvchi ushbu vizual yoki tovushli materialning dominant rolini yo‘qotishiga yo‘l qo‘ymasligi kerak, chunki bu materiallar unga faqat o‘z ishida yordam beradi, lekin uning rolini almashtirmaydi. Audiovizual materiallar har doimgidek samarali usullardan biri bo‘lib, bu talabalarga o‘rgangan narsalarini amalda qo‘llashda imkon berib, talabalarga imo-ishoralar, ko‘z bilan aloqa qilish va yuz ifodalari yordamida ma’no yetkazish uchun muloqot qilish imkoniyatini beradi<sup>3</sup>.

<sup>1</sup> Yusupova Nargiza Nigmatovna

ARALASH TA’LIMNING KIRIB KELISHI VA TEXNOLOGIYA SOHASIDAGI SO‘NGGI O‘ZGARISHLA

<sup>2</sup> Y.N.Nigmatovna. ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ КЛАСТЕРИ МУҲИТИДА АРАЛАШ ТАЪЛИМНИ ҚЎЛЛАШ ТЕХНОЛОГИЯСИ

<sup>3</sup> Roza Turdiyeva. (2022). O‘ZBEK, INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA MILLIYLIKGA YO‘NALTIRILGAN NUTQ TAKTIKASI SIFATIDA TILAK VA ILTIFOT. Innovative development in educational activities, 1(6), 356–358. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7496957>

## Adabiyotlar.

1. Бурдаева Т. В., Жесткова Т. М. Геймификация в преподавании иностранных языков в техническом вузе // Наука и образование транспорту. 2018. № 2. С. 242–245.
2. Мильруд Р. П. Организация ролевых игр на уроке // Иностранные языки в школе. 1987. № 3. С. 8–13.
3. Стронин М. Ф. Обучающие игры на уроках английского языка. М., 1994. 231 с.
4. Ta'lim to‘g‘risidagi qonun hujjatlari ushbu Qonundan hamda boshqa qonun ... haqida”gi qarori [Electron resurs] Kirish tartibi: <https://www.lex.uz/docs/-16188>
5. The Guardian [Electron resurs]. Kirish tartibi: <https://www.theguardian.com/football/live/2018/mar/03/liverpool-v-newcastle-united-premier-league-live>
6. Yusupova Nargiza Nigmatovna. ZAMONAVIY O ‘QITISH METODLARIDA ROL O ‘YINLARINI KENG QO ‘LLANILISHI  
[https://journal.bilik.uz/isepsmj/article/view/1013](https://journal.bilig.uz/isepsmj/article/view/1013)
7. Roza Turdiyeva. (2022). O‘ZBEK, INGLIZ VA QORAQALPOQ TILLARIDA MILLIYLIKGA YO‘NALTIRILGAN NUTQ TAKTIKASI SIFATIDA TILAK VA ILTIFOT. Innovative development in educational activities, 1(6), 356–358.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.7496957>
8. Yusupova Nargiza Nigmatovna. Методология функциональных подходов инновационного кластера педагогического образования  
[https://scholar.google.com/citations?view\\_op=view\\_citation&hl=ru&user=6hnQqEQAAAAJ&citation\\_for\\_view=6hnQqEQAAAAAJ:UeHWp8X0CEIC](https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=6hnQqEQAAAAJ&citation_for_view=6hnQqEQAAAAAJ:UeHWp8X0CEIC)